

AMIRIY LIRIKASIDA BIR G‘AZAL BADIYYATI

Toshpo‘latov Azizbek Ikromjon o‘g‘li,
NamDPI Filologiya kafedrası o‘qituvchisi, PhD
E-mail: azizbektoshpulatov1907@gmail.com

Dadajonova Farzona Sherzod qizi,
NamDPI, O‘zbek tili va
adabiyot yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
E-mail: farzonadadajonova37@gmail.com

Anotatsiya. Ushbu maqolada Amiriyning “Lab uyur takallumg‘a, zulfni parishon qil” g‘azalining badiiy xususiyatlari, mazmuniy qatlami, undagi oshiq va ma‘shuqa obrazlari hamda ularning ishqiy kechinmalar ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: g‘azal janri, poetik ahamiyat, badiiy tasvir vositalari, tashbeh, mubolag‘a, tazod, nido, ishqiy lirika.

Annotatsion. This article examines the artistic features of Amiriy’s ghazal “Lab uyur takallumg‘a, zulfni parishon qil” its semantic layers, the images of the lover and the beloved, and the expression of romantic emotions within it.

Keywords: ghazal genre, poetic significance, artistic devices, simile, hyperbole, antithesis, exclamation, love lyrics.

Анотация. В данной статье раскрываются художественные особенности, смысловой пласт газели Амири “Lab uyur takallumg‘a, zulfni parishon qil” образы влюбленных и возлюбленных, а также их любовные переживания.

Ключевые слова: жанр газели, поэтическое значение, художественные средства изображения, сравнение, гиперболы, контраст, возглас, любовная лирика.

Kirish. “Badiiy adabiyotda ham har bir davr va davrlar uchun favqulodda iste‘dodli va keng ko‘lamdagi ijodkorlar fenomen deyiladi. Bunday ijodkorlarning asarlari keng miqyosda o‘qilishi bilan birga, ularning shaxsi ham ma‘lum ma‘noda ardoqqa ega bo‘ladi” [7, 45]. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida Qo‘qon adabiy muhitining o‘ziga xos o‘rni bor. Ma‘daniy merosimiz zalvorini u yerda kamol topgan Gulxaniy, Uvaysiy, Nodira, Maxmur, Fazliy, Ado kabi sanoqsiz ijodkorlarning asarlarsiz tasavvur qilish qiyin. Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, bu Qo‘qon adabiy muhitini yaralishida Amir Umarxonning hissasi beqiyos. Amiriy taxallusi bilan ijod qilgan Qo‘qon xoni Amir Umarxon o‘zining hukmronligi davrida xonlikda ulkan adabiy muhit yaratdi. Xususan, u atrof viloyatlardagi barcha ijodkorlarni Qo‘qonga to‘pladi. Olim-u fozil, shoir-u san‘atkorlar bilan suhbatlar uyushtirdi, munozaralar o‘tkazdi [4, 130]. “...goho ulamo suhbatlarinda o‘lturdim. O‘yot va ahodis gavharlarini bila quloq sadafin to‘ldurdim. Va goho fazl-u kamol ahli bila majolasat qildim. Ilm-u donish nuridin bahra oldim. Fununi maoniy javohirlarin ko‘ngul xazinasiga soldim”. Amiriy ijodkor sifatida 10 ming misradan ortiq she‘rlar bitib, g‘azal, muxammas, musaddas, tuyuq kabi janrlarda barakali ijod qilgan.

Asosiy qism. G‘azal – ishq-muhabbat haqida bahs yurituvchi lirik she‘r. Sharq xalqlari ijodida keng tarqalgan janr bo‘lib, unda insonning ruhiy kechinmalari, ishqiy tuyg‘ulari, ma‘naviy va axloqiy qarashlari badiiy obrazlar orqali ifodalanadi [5, 20]. Mumtoz shoirlar, xususan, Alisher Navoiy, Lutfiy, Ogahiy, Furqat, Bobur, Amiriy va boshqalar g‘azal janridan erkin foydalangan holda, nafaqat ishqiy mavzularni, balki insonning ichki olami, ruhiy iztiroblari va ma‘naviy kamolotini ham tasvirlaganlar.

Mazkur shoirlar orasidan, ayniqsa “Amiriy” taxallusi bilan ijod qilgan Amir Umarxon g‘azallari hayotning har jabhasidan so‘z borgani, mavzu qamrovi kengligi, olam va odam, ularning munosabatlariga oid barcha masalalar xususida fikr yuritilganligi bilan ko‘zga ko‘rinib turadi. Shuningdek, shoir g‘azallarining yana bir e‘tiborli tomoni shundaki, unda umumbashariy masalalarni ifodalashda o‘ziga xos yangicha tasvir vositalaridan, badiiy timsol, tashbeh – u qiyoslardan, tarhi toza so‘zlar qatlamidan foydalanganidadir [7, 130]. Xususan, uning “*Lab uyur takallumg‘a zulfni parishon qil*” deb boshlanuvchi g‘azali yuqorida sanalgan mumtoz poetik an‘analarning yorqin namunasi bo‘lib, unda yor jamolining tasviri, oshiqning ruhiy holati hamda ishqiy kechinmalari o‘zaro uyg‘un holda ifodalangan.

Amiriyning yuqorida zikr etilgan g‘azali an‘anaviy 7 baytdan iborat bo‘lib, *parishon, arzon, pinhon, pushaymon* kabi fors-tijik hamda *ehson, musulmon, qurbon, g‘azolon* kabi arabiy so‘zlardan qofiya sifatida foydalanadi. “Qil” so‘zi qisqa radif bo‘lishiga qaramay, she‘rni yaxlit bir ipga tizish vazifasini bajaradi. G‘azal hazaji musammani ashtar vaznida yozilgan bo‘lib, taqte‘si quyidagicha:

– V – / V – – – / – V – / V – – –

foilun mafoiylun foilun mafoiylun

Bu vazn mumtoz adabiyotimizda eng ohangi yoqimli vaznlardan biri hisoblanadi.

Lab uyur takallumg‘a zulfni parishon qil,

Qand qimmatin sindur, narxi anbar arzon qil.

G‘azal matla‘si yorning tashqi go‘zalligini markaziy obyektga aylantirgan holda tasvirlash bilan boshlanadi. 1-misrada oshiq yorning labini “qand”ga, zulfini esa “mushk anbarga” qiyoslash orqali an‘anaviy tashbeh san‘atidan foydalangan. “Qand qiymatin sindur” ifodasida esa mubolag‘a san‘atidan Amiriy mukammal tarzda foydalandi.[6] Ya‘ni yorning labini shirinligi shunchalik shirinki, u hatto qandning qiymatini ham pasaytiradi. Xuddi shuningdek, “anbari arzon qil” iborasida bo‘lsa, mubolag‘ani yanada kuchaytirish vazifasini bajaradi. Mazkur baytda go‘zallikning eng yuqori darajasi ifodalangan bo‘lib, buni faqat oshiq tushuna oladi. Yor tasviri bilan bog‘liq bunday tasvirlar Alisherning Navoiyning “Sho‘x ikki g‘izolingni” g‘azali bunga misol bo‘la oladi.[7]

Husn shohisen, jono, bu hazin gadolarg‘a,

Ko‘z uchi birla boqib, xayr ayla ehson qil.

Bu baytda dastlab shoh va gado oppozitsiyasi kishi e‘tiborini tortadi. Bu so‘zlar orqali tazodning yaqqol namunasi yuzaga kelgan. Yor “shoh” husnda tengsiz, uning chiroyi aqlni shoshiradi. Oshiq bo‘lsa, uning visoliga yetishni xohlaydigan, uning ko‘yida o‘rtanayotgan g‘amgin gado. Oshiq o‘zini gado holatida tasvirlashi mutlaq kamtarligini va to‘liq ma‘shuqaga bo‘ysinishini anglatadi va zimdan tasavvufiy mazmunga ham ishora qilib o‘tadi. Keyingi misradagi “ko‘z uchi bila boqmoq” iborasi kinoyaviy ma‘noga ega bo‘lib, bu yerda kichik e‘tibor ham katta ne‘mat sifatida talqin etiladi. Mazkur bayt “Ey yor, sen husn shohisan, biz g‘amgin gadolarmiz. Ko‘z qiring bilan boqib, bizga sadaqa ehson qil” degan ma‘noga yuzaga keladi.

Ishq dinig‘a munkir bo‘lsa, zohidi xudbin,

Ey sanam, liqo ko‘rsat, gabrni musulmon qil

Ushbu baytda ishq diniy tushuncha darajasiga ko‘tarilgan va mubolag‘a san‘ati orqali bo‘rttirilib tasvirlangan. “gabrni musulmon qil” ifodasi yorning jamolini juda ham qudratliligini, hatto u kofirni ham iymonli qilishi, e‘tiqodni o‘zgartira olish kuchiga ega ekanligini ko‘rsatib beradi. Shoir bu bayt orqali haqiqiy ishq eng oliy haqiqatligi, uni inkor etgan zohid, aslida ruhiy yetuklikdan yiroqligi, aksincha, ishq kuchi eng sovuq qalbni, ko‘ngilni ham o‘zgartira olishi mumkinligi g‘oyasini ilgari suradi.

Ehtisob uchun zohid kirsas, dayr aro, soqiy

Bir qadah bila oning zuhdidin pushaymon qil.

Mazkur baytda shoir zohidni tanqid qilgan holda soqiyga murojaat qiladi. Oshiqning soqiyga bevosita murojaati nido san‘atini yuzaga kelishida asos bo‘lib xizmat qiladi. “Agar zohid mayxonaga boshqalar ustidan nazorat va hisob-kitob uchun kirsas, ey soqiy, sen unga bir qadah may ber, shunda uning asli qanday ekanligi namoyon bo‘ladi va shunda, u o‘zining quruq taqvodorligidan pushaymon bo‘ladi” mazmunidagi g‘oyani tushunish mumkin. Shuningdek, baytda tanosib san‘ati orqali may, soqiy, zohid obrazlari umumiyashtiriladi hamda tasavvufiy ma‘noga ishora qilinadi. May, ishq, soqiy ishq yo‘liga boshlovchi ramz sifatida talqin etilsa, zohid obrazi orqali riyokorlik qoralanadi.

Istasang ko‘ngullarni g‘amza yoyiga qirbon,

Qoshlaring hilolini mohi iyda qurbon qil.

Mazkur baytda ijodkor tashbeh she‘riy san‘atidan mohirona foydalanib, oshiq yoring nigohi va qarashini yoyga o‘xshatadi. Yor qoshlari shunday go‘zal tasvirlanadiki, hatto yangi chiqqan oy bilan teng huquqli. Baytdan yor o‘zi xohlasa, birgina qarashi bilan qanchadan qancha ko‘ngillarni zabt eta olishi, qoshlarining chiroyini hatto hayit oyiga qurbon qila olish kuchiga egaligi tasvirlanadi. Amiriyning baytda foydalagan tasvir vositalari va obrazlari ya‘ni qoshning hayit oyiga qurbon

bo‘lishi mumtoz adabiyotda boshqa shoirlar ijodida uchramaydi. Shuning uchun ham shoir lirikasi badiiyatini o‘rganish adabiyotshunoslik uchun yangi ilmiy va nazariy qarashlarni mustahkamlaydi.

*Sho‘x chashmi naxvatsen, noz dashtida sayr et,
Gardi xoki poyingni, surmayi g‘azolon qil.*

G‘azalning mazkur bayti tashbeh va mubolag‘a san‘ati asosiga qurilgan bo‘lib, oshiq ma‘shuqasining ko‘zlariga haddan ortiq maqto‘v yog‘diradi. Yorning ko‘zlari huddi yosh ohudek, agar ular noz dashtida sayr qilsa, hatto ohular ham u bosgan tuproqni yuziga surma qiladi. Baytdagi “Noz dashti” iborasi keng maydon, makon sifatida tasvirlanadi. “Xoki poy”, “surmayi g‘azolon” esa mubolag‘ani o‘zida ifodalaydi.

*Yor la‘lidan harfe ayladin Amir insho,
Ey ko‘ngul, bu gavharni jon ichinda pinhon qil.*

Maqta shoirning poetik qarashlarini mujassamlashtiradi. Mazkur baytda yor jamoli bilan bog‘liq lirik qarashlar holda talqin qilinib, badiiy so‘zning qimmatini “gavhar” metaforasi orqali yuksak darajada ifodalanadi. Baytda nido, tashbeh, mubolag‘a va tashxis kabi badiiy tasvir vositalari uyg‘unlashib, uning estetik ta‘sirchanligini oshirgan. Natijada, ushbu bayt g‘azalning g‘oyaviy-badiiy yakuni sifatida muhim poetik vazifani bajaradi.

Amiriyning yuqorida tahlil etilgan g‘azali poetik jihatdan ishqning markaziy g‘oya sifatida talqin qilinganligi, tasavvufiy va ishqiy motivlarining uyg‘unligi va badiiy tasvir vositalarining serqirraligi kabi xususiyatlarga ega.

Xulosa qilib aytganda, mazkur g‘azal mumtoz o‘zbek she‘riyatining badiiy jihatdan yetuk namunalaridan biri bo‘lib, unda ishqiy lirikaning asosiy poetik xususiyatlari mujassamlangan. G‘azalda qo‘llangan tashbeh, iste‘ora, mubolag‘a, tazod va talmeh kabi san‘atlar asarning badiiy ta‘sirchanligini oshirib, uning estetik qiymatini belgilagan. Eng muhim jihati g‘azal murakkab poetik tizimga ega bo‘lib, unda shakl va mazmun uyg‘unligi yuqori darajada namoyon bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sulstonov I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1986. – B. 335.
2. Uluqov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 2017. – B. 198.
3. Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. – Toshkent: Tamaddun, 2022. – B. 66.
4. Adizova I. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan, 2009. – B. 139.
5. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002. – 480 b.
6. Alisher Navoiy. TAT. G‘aroyib us-sig‘ar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 2011. – B. 51.
7. Jo‘raboyev O. Amir Umarxon va Qo‘qon adabiy muhiti // O‘zbek tili va adabiyoti, 2019. – №6. – B. 45.